



UDK:372.8

*Ozoda QAYUMOVA,*  
*O'qituvchi, Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti universiteti*  
*E-mail: ozodaqayumova63@gmail.com*

*O'ZMMSI dotsenti, filologiya fanlari nomzodi N.Chiniqulov taqrizi asosida*

## DEVELOPING COMMUNICATIVE COMPETENCE IN STUDENTS

Annotation

This article examines the theoretical and methodological foundations of developing communicative competence among students in general secondary schools. It analyzes the essence of the concept of communicative competence as well as its structural components, including linguistic, speech, strategic, social, and sociocultural competences. The main purpose of the study is to identify effective pedagogical approaches that contribute to the development of students' communicative abilities and the improvement of their speech activity. The study substantiates the effectiveness of such didactic approaches as the use of interactive methods, the creation of speech situations, text-based activities, systematic vocabulary work, and role-playing techniques. The results of the study show that the development of communicative competence is a continuous, systematic, and goal-oriented pedagogical process, which is implemented through enriching students' vocabulary, developing their speech culture, and forming skills of effective language use.

**Key words:** Communicative competence, linguistic competence, speech competence, professional competence, role play, vocabulary development, social situation, speech production, speech situation, learner's dictionaries.

## ФОРМИРОВАНИЕ КОММУНИКАТИВНОЙ КОМПЕТЕНЦИИ У УЧАЩИХСЯ

Аннотация

В данной статье рассматриваются теоретические и методические основы формирования коммуникативной компетенции у учащихся общеобразовательных школ. Анализируется сущность понятия коммуникативной компетенции, а также её структурные компоненты: лингвистическая, речевая, стратегическая, социальная и социокультурная компетенции. Основной целью исследования является выявление эффективных педагогических подходов, способствующих развитию коммуникативных способностей учащихся и совершенствованию их речевой деятельности. В ходе исследования обосновывается эффективность таких дидактических подходов, как использование интерактивных методов, создание речевых ситуаций, работа с текстом, системная работа со словарём, а также ролевые игры. Результаты исследования показывают, что формирование коммуникативной компетенции представляет собой непрерывный, системный и целенаправленный педагогический процесс, который осуществляется посредством обогащения словарного запаса учащихся, развития их речевой культуры и формирования навыков эффективного использования языковых средств.

**Ключевые слова:** Коммуникативная компетенция, лингвистическая компетенция, речевая компетенция, профессиональная компетенция, ролевая игра, словарный запас, социальная ситуация, порождение речи, речевая ситуация, учебные словари.

## O'QUVCHILARDA KOMMUNIKATIV KOMPETENSIYANI SHAKLLANTIRISH

Annotatsiya

Mazkur maqolada umumta'lim maktablari o'quvchilarida kommunikativ kompetensiyani shakllantirishning nazariy va metodik asoslari yoritilgan. Kommunikativ kompetensiya tushunchasining mazmun-mohiyati hamda uning lingvistik, nutqiy, strategik, ijtimoiy va sotsiokulturologik tarkibiy qismlari tahlil qilinadi. Tadqiqotning asosiy maqsadi o'quvchilarning kommunikativ qobiliyatlarini rivojlantirish va nutqiy faoliyatini takomillashtirishga xizmat qiluvchi samarali pedagogik yondashuvlarni aniqlashdan iborat. Tadqiqot jarayonida interfaol metodlar, nutqiy vaziyatlar yaratish, matn bilan ishlash, lug'at ustida tizimli ishlash hamda rolli o'yinlar kabi didaktik yondashuvlarning samaradorligi asoslab beriladi. Tadqiqot natijalari shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani shakllantirish uzluksiz, tizimli va maqsadga yo'naltirilgan pedagogik jarayon bo'lib, u o'quvchilarning lug'at boyligini oshirish, nutq madaniyatini rivojlantirish hamda til vositalaridan samarali foydalanish ko'nikmalarini shakllantirish orqali amalga oshiriladi.

**Kalit so'zlar:** Kommunikativ kompetensiya, lingvistik kompetensiya, nutqiy kompetensiya, kasbiy kompetensiya, rolli o'yin, lug'at boyligi, ijtimoiy vaziyat, nutq yaratish, nutqiy vaziyat, o'quv lug'atlari.

**Kirish.** Hozirda ona tili ta'limida o'qituvchilar o'quvchilarga bilim berish bilan bir qatorda, ularda hayotiy ko'nikmalarni shakllantirishi muhim vazifa sifatida qaralmoqda. Shunday ko'nikmalardan biri kommunikativ kompetensiya bo'lib, u shaxsning turli vaziyatlarda samarali muloqot qila olish qobiliyatini anglatadi. Kommunikativ kompetensiya – o'quvchilarning ijtimoiy vaziyatlarda ona tilida samarali muloqot qilish qobiliyati, nutq madaniyatiga rioya qilish va turli vaziyatlarda til vositalarini to'g'ri qo'llashga doir

bilimlari yig'indisi. “Kommunikativ kompetensiya” terminini D. Haymes har qanday nutq o'ziga xos qoidalarga ega bo'lib, grammatik qoidalar ham ana shu qoidalarga bo'ysunadi va ularni o'zlashtirish esa shaxsning kommunikatsiya jarayonida tildan samarali foydalanish qobiliyatini ta'minlaydi, deb ta'kidlaydi [1]. “Ona tili fanini o'qitishda asosiy maqsad grammatik qoidalarni yodlatish emas, balki o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirish va til birliklaridan amaliy nutqda foydalanishga o'rgatishdan iborat”[5].

**Mavzuga oid adabiyotlar tahlili.** O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish ta'lim jarayonining muhim vazifasi bo'lib, u o'z fikrini aniq ifodalash, boshqalarni tinglash, hamkorlikda ishlash va ijtimoiy muammolarni muloqot orqali hal etish ko'nikmalarini qamrab oladi. M.Kanale va M.Svayn kommunikativ kompetensiyani to'rt komponentga ajratgan: grammatik, sotsiokultural, diskursiv (nutqiy) va strategik [2]. Rus metodisti L.Bim esa kommunikativ kompetensiyani nutq faoliyati turlari bilan bog'lab quyidagi turlarga ajratadi [3]: tinglash, gapirish, o'qish va yozish. E.I. Passov, N.D. Galskova va boshqalar kommunikativ kompetensiya quyidagi tarkibiy qismlarga ajratadi:

- lingvistik kompetensiya;
- nutqiy kompetensiya;
- strategik kompetensiya;
- ijtimoiy kompetensiya;
- sotsiokulturologik kompetensiya;
- predmet kompetensiyasi;
- kasbiy kompetensiya.

Lingvistik kompetensiya o'quvchilarga til haqidagi asosiy tushunchalarni egallash, boshqalarning nutqini tushunish hamda muloqot jarayonida o'z nutqini to'g'ri qurish imkonini beradi. Nutqiy kompetensiya esa shaxsga o'z fikrlarini aniq shakllantirish va to'g'ri ifodalash imkonini yaratadi. Strategik kompetensiya o'quvchiga ona til bo'yicha bilimlardagi bo'shliqlarni to'ldirishga yordam beradi hamda quyidagi imkoniyatlarni ta'minlaydi:

I. Matnni o'qish jarayonida:

notanish so'zlarning ma'nosini kontekst, mavzu va vaziyat asosida tushunish;

- lug'atdan so'zning to'g'ri ma'nosini topish;
- morfemalar asosida so'z ma'nosini aniqlash.

II. Berilgan matn yoki nutqni tinglash jarayonida:

kontekstga tayangan holda so'z va iboralarning ma'nosini anglash;

III. Og'zaki muloqot jarayonida:

- suhbatdoshga tushunarli bo'ladigan nutq tuza olish;
- muloqot davomida o'z nutqiga tuzatishlar kiritish.

Ijtimoiy kompetensiya insonning boshqa kishilar bilan muloqotga kirisha olishi va bunga intilishi orqali namoyon bo'ladi. Sotsiokulturologik kompetensiya tilning milliy-madaniy xususiyatlarini bilish va ularga rioya qilishni nazarda tutadi. Predmet kompetensiyasi shaxsning muayyan fan yoki faoliyat sohasi doirasida muloqot vaqtida erkin yo'nalish olib bilishini ta'minlaydi. Kasbiy kompetensiya esa muvaffaqiyatli professional faoliyat yuritish qobiliyatini shakllantiradi. Ona tili fanini o'qitishda asosiy maqsad – grammatik qoidalarni yodlatish emas, balki ulardan nutqda foydalanishga o'rgatishdir. Kommunikativ yondashuv asosida tashkil etilgan darslarda o'quvchi tilni muloqot vositasi sifatida angelaydi. Bu esa uning mustaqil fikrlash, nutqiy faollik va ijodkorlik qobiliyatini rivojlantiradi [4].

**Tadqiqot metodologiyasi.** O'quvchilarda kommunikativ kompetensiyani rivojlantirish quyidagi imkoniyatlarni beradi:

1) O'quvchilar lug'at boyligini oshirish. Turli xil lug'atlardan tizimli va ko'p qirrali foydalanish o'quvchilarning nutqini rivojlantiradi hamda ularning lug'at boyligini sezilarli darajada kengaytiradi;

2) O'quvchilarning nutqni qabul qilishi va talqin etishi, kitoblarni ongli o'qishi uchun zarur bo'lgan leksik birliklarni to'g'ri o'zlashtirishini ta'minlaydi. Ona tili darslarida o'quvchilarga qiyin so'zlar lug'atini tuzish vazifasi topshiriladi. Sinonimlar, neologizmlar, omonimlar va boshqa til birliklari ustida ishlash nafaqat imloviy ko'nikmalarni mustahkamlaydi,

balki o'quvchilarning lug'at boyligini hamda so'zga nisbatan e'tiborini ham oshiradi.

Shuningdek, M. T. Baranov o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirishda lug'at ustida ishlash alohida ahamiyat kasb etishini hamda lug'at boyligini oshirish og'zaki va yozma nutqni takomillashtirishning muhim sharti ekanligini ta'kidlaydi [7]. Chunki o'quvchining lug'at boyligi qanchalik keng bo'lsa, u fikrini shunchalik aniq ifodalay oladi va axborotni tezroq qabul qiladi. Kommunikativ kompetensiyaga ega o'quvchi o'z fikrini erkin ifoda etadi, suhbatdoshining fikrini tinglaydi, jamoada samarali ishlaydi va muammolarni muloqot orqali hal qila oladi [6:34]. "Darslikdagi o'quv materiallari o'quvchilarning nutqiy savodxonligini oshirishga, yozma nutqini to'g'ri shakllantirishga qaratilgan" [5]. Ona tili darslarida kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishda quyidagi usullardan foydalanish mumkin:

1) Interfaol metodlardan foydalanish. "Bahs-munozara", "Aqliy hujum", "Insert", "Klaster", "Rolli o'yin" kabi metodlar o'quvchilarni faol fikrlashga va muloqotga undaydi [9]. Xususan, "Bahs-munozara" va "Aqliy hujum" metodlari o'quvchilarda erkin fikrlash, muammoni turli nuqtayi nazardan tahlil qilish va o'z fikrini asoslab bera olish ko'nikmalarini shakllantiradi. "Insert" va "Klaster" metodlari esa o'quv materialini tizimlashtirish, mavjud bilimlarni faollashtirish hamda yangi axborotni chuqur o'zlashtirishga xizmat qiladi. "Rolli o'yin" metodining qo'llanishi o'quvchilarning kommunikativ faoliyatini rivojlantirib, real hayotiy vaziyatlarga yaqin sharoitda nutqiy tajriba orttirish imkonini beradi. Interfaol metodlar o'quvchilarning kognitiv faolligini oshirish, mustaqil fikrlashini rivojlantirish va samarali muloqot ko'nikmalarini shakllantirishda muhim pedagogik vosita sifatida xizmat qiladi.

2) Nutqiy vaziyat yaratish. Nutqiy vaziyat – o'quvchini real yoki realga yaqin kommunikativ sharoitga jalb etish orqali uning til birliklaridan maqsadga muvofiq foydalanishiga xizmat qiluvchi pedagogik vosita. Bunday vaziyatlar o'quvchining tilni faqat nazariy jihatdan emas, balki amaliy qo'llash jarayonida o'zlashtirishini ta'minlaydi. Dars jarayonida hayotiy vaziyatlarga asoslangan topshiriqlarni qo'llash o'quvchilarda muloqotga kirishish ehtiyojini yuzaga keltiradi, nutqning mazmunan boy va mantiqan izchil bo'lishiga yordam beradi. Masalan, kundalik hayotdagi suhbatlar, ijtimoiy muammolarni muhokama qilish, rolli o'yinlar yoki muayyan vaziyatga asoslangan dialoglar o'quvchilarning nutqiy faolligini oshiradi.

3) Matn bilan ishlash. Matn – til birliklarining mantiqan va mazmunan yaxlit tizimi bo'lganligi sababli, u o'quvchining nutqiy faoliyatini shakllantirishda asosiy didaktik material vazifasini bajaradi. Matnni o'qish jarayonida o'quvchilarda mazmunni anglash, asosiy va ikkilamchi fikrlarni ajratish, matn tuzilishini tushunish ko'nikmalari rivojlanadi. Qayta hikoya qilishda esa o'zlashtirilgan axborotni mustaqil ravishda qayta ishlab, uni og'zaki nutqda izchil bayon etiladi. Reja tuzish mashqlari o'quvchilarda mantiqiy fikrlashni shakllantirib, matnning kompozitsion tuzilishini anglashga yordam beradi. Xulosa chiqarish jarayonida umumlashtirish, tahlil qilish va muhim jihatlarni ajratib ko'rsatish ko'nikmalari shakllanadi. Bunday mashqlar o'quvchining bog'lanishli nutqini rivojlantirishga yordam beradi.

4) O'quv lug'atlari bilan ishlash. So'z boyligi qanchalik keng bo'lsa, o'quvchi o'z fikrini shunchalik aniq, ravon va mantiqan izchil ifodalay oladi. Lug'atlar bilan ishlash jarayonida o'quvchilar yangi so'zlarning ma'nosini o'zlashtiradilar, ularni turli nutqiy vaziyatlarda qo'llashni o'rganadilar hamda sinonim, antonim, omonim kabi leksik birliklar o'rtasidagi munosabatlarni anglaydilar. Bu esa nutqning ifodaviyligini oshiradi, takroriylikni kamaytiradi va fikrning aniqligini ta'minlaydi. Xususan, sinonim, antonim,

iboralar va maqollar ustida muntazam ishlash zarur [8]. Chunki ular tilning ifodaviy imkoniyatlarini kengaytiruvchi muhim vositalar bo'lib, o'quvchining lug'at boyligini oshirishga xizmat qiladi. Sinonimlar ustida ishlash nutqda takroriylikni kamaytirib, fikrni rang-barang va aniq ifodalash imkonini beradi. Antonimlar esa qarama-qarshi ma'nolarni solishtirish orqali tushunchalarni chuqurroq anglashga yordam beradi. Iboralar va maqollar bilan ishlash esa o'quvchilarning nutqini obrazli, ta'sirchan qilishga yordam beradi.

**Tahlil va natijalar.** V.A.Kustareva va boshqalar: "Fikrni aniq shakllantirishni talab qilish, vazifa shartini ongli Berilgan rasmlar asosida 8-sinf o'quvchilarga "Oilaviy sayohat" nomli og'zaki nutq tuzish vazifasi berildi:



1.1-rasm

Ko'rsatilgan rasmlardan bittasini tanlang va u asosida 10-12 ta gapdan iborat monolog tuzing. Yaratgan nutqingizda:

- qachon sayohatga chiqqaningiz;
- qayerga borganingiz;
- kimlar borgani;
- oilangizdagilar bilan qanday mavzularda suhbatlashganingizni;
- sayohat sizda qanday taassurot qoldirganini ayting.

Foydalanish uchun so'zlar: yoz fasli, ta'til, rejalashtirmoq, dam olish kuni, ovqat tayyorlamoq, sotib olmoq, meva va sabzavotlar, bahramand bo'lmoq, eslamoq, suhbatlashmoq... Bu topshiriq kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga qaratilgani uchun o'quvchilarga foydalanish

Quyidagi jadval asosida o'quvchilarning og'zaki nutqi baholandi: 1.1-jadval

№	Mezon	Tavsif	Ball
1	Mazmun va mantiqiylik	Fikr aniq, izchil, mavzuga mos bayon qilinadi (kirish, asosiy qism, xulosa mavjud)	0-5
2	Nutqning ravonligi	To'xtalmasdan, erkin gapira oladi ("eee", "mmm" kabi ortiqcha to'xtashlarsiz bayon qiladi.)	0-5
3	Lug'at boyligi	So'z boyligi yetarli, sinonimlardan foydalanadi	0-5
4	Grammatik to'g'rilik	Gaplar grammatik jihatdan to'g'ri tuzilgan	0-5
5	Talaffuzi	So'zlar (adabiy til me'yorlari asosida) to'g'ri talaffuz qilinadi, urg'u o'rinli	0-5
6	Kommunikativlik	Savollarga javob beradi, fikr bildiradi, suhbatga kirishadi	0-5

Ushbu metod orqali o'quvchilar til birliklarini amaliy nutq jarayonida qo'llash, suhbatni boshlash, davom ettirish va yakunlash kabi kommunikativ malakalarni egallaydilar. Xaridor rolini bajaruvchi o'quvchi savol berish, mahsulot tanlash va uning narxini aniqlash orqali nutqiy faolligini namoyon etadi. Sotuvchi rolidagi o'quvchi esa mahsulot haqida ma'lumot berish, uning sifati va xususiyatlarini tushuntirish orqali izohlovchi nutqni rivojlantiradi. Mazkur topshiriq o'quvchilarda savol-javob asosida muloqot qilish, nutq odobiga rioya etish, suhbatni mantiqan to'g'ri tashkil qilish ko'nikmalarini shakllantiradi. Shuningdek, savdo jarayonini yakunlash bosqichi o'quvchilarga suhbatni to'g'ri tugatish,

takrorlatish, mustaqil topshiriq tuzdirish va savollar yordamida topshiriqni yechish yo'lini tushuntirish ko'nikmasi ustida ishlash o'quvchilarda qayta hikoyalash, insho va muhokama qilish madaniyatini o'stiradi", deb ta'kidlaydi [10]. Bunday yondashuv o'quvchilarda fikrni izchil bayon qilish, asoslash va umumlashtirish ko'nikmalarini shakllantiradi. Natijada ular o'z fikrini qayta hikoya qilish, insho yozish va muhokama qilish jarayonida aniq, ravon hamda mantiqan bir-biriga bog'langan nutq tuzishga o'rganadilar. Yuqorida keltirilgan nazariy qarashlar va metodik yondashuvlardan kelib chiqib, tadqiqot jarayonida quyidagi usullardan foydalanildi.

Keyingi topshiriqda "Rolli o'yin" metodidan foydalanildi. O'quvchilar bilan kichik guruhlarda vazifa bajarildi. Mavzu: Do'konda xarid qilish



uchun so'zlar berildi va baholash jarayonida esa rasmi tasvirlash qobiliyati, nutqning mantiqiyliigi, lug'at boyligiga e'tibor qaratildi.

Vaziyat: Siz do'kondasiz. Bir o'quvchi sotuvchi, ikkinchisi xaridor rolini bajaradi.

- xaridor mahsulot so'rashga qaratilgan savollar beradi;
- narxini so'raladi;
- sotuvchi mahsulot haqida ma'lumot beradi;
- savdo jarayonini yakunlang.

xulosa qilish va kommunikativ vaziyatni yakunlash malakasini hosil qiladi. Rolli o'yin metodidan foydalanish o'quvchilarning og'zaki nutqini rivojlantirish, lug'at boyligini oshirish hamda kommunikativ kompetensiyasini shakllantirishda samarali pedagogik vosita hisoblanadi.

Tahlillar shuni ko'rsatadiki, kommunikativ kompetensiyani rivojlantirishga yo'naltirilgan darslarda o'quvchilarning darsga qiziqishi ortadi, mustaqil fikrlash faollashadi hamda jamoada ishlash ko'nikmalari shakllanadi. Ayniqsa, interfaol metodlar asosida tashkil etilgan mashg'ulotlarda o'quvchilar o'z fikrini erkin ifodalashga intiladi. Tadqiqot natijalariga ko'ra, kommunikativ

metodlardan foydalanilgan sinflarda quyidagi ijobiy o'zgarishlar kuzatildi:

- o'quvchilarning darsdagi faolligi oshadi;
- erkin fikr bildirish ko'nikmasi shakllanadi;
- og'zaki nutqi yaxshilanadi;
- jamoada ishlash malakasi rivojlanadi;
- o'zaro hurmat va tinglash madaniyati shakllanadi.

**Xulosa va takliflar.** Xulosa qilib aytganda, o'quvchilarning kommunikativ kompetensiyasini rivojlantirish zamonaviy ta'limning ustuvor vazifalaridan biridir. Buning uchun dars jarayonida interfaol metodlardan foydalanish, o'quvchilarni erkin fikr bildirishga undash, nutqiy vaziyatlar yaratish va lug'at boyligini oshirish lozim. Natijada o'quvchilarda muloqot madaniyati, mustaqil fikrlash va ijtimoiy faollik shakllanadi.

#### ADABIYOTLAR

1. Hymes D.H. On Communicative Competence // Sociolinguistics: Selected Readings. – Harmondsworth: Penguin, 1972. – P. 278.
2. Canale M., Swain M. Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing // Applied Linguistics. 1980. Vol.1(1). P.1–47.
3. Бим И.Л. Теория и практика обучения немецкому языку в средней школе. Москва: Просвещение, 1988.
4. Mahmudov N. Til va nutq madaniyati. – Toshkent: O'qituvchi, 2010.
5. Mahmudov N., Rafiyev A., Yo'ldoshev I. Nutq madaniyati va davlat tilida ish yuritish. Toshkent: Cho'lpon, 2013.
6. Canale, M., & Swain, M. (1980). Theoretical Bases of Communicative Approaches to Second Language Teaching and Testing. Applied Linguistics, 1(1), 1–47.
7. Баранов М. Т. (1980). Обогащение словарного запаса учащихся на уроках русского языка. Москва: Просвещение.
8. Sayidahmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. – Toshkent: Moliya, 2003.
9. Селевко Г. К. Современные образовательные технологии. – М.: Народное образование, 1998.
10. Рождественский С., Кустарева А., Методика начального обучения русскому языку. “Просвещение”, – М.: 1965. – 297 с.